



Ijtimoiy odoblar. Fazilatlat. Esse yozish qoidasi.

**Zaripova Ma'mura
Shaylovovna**

*oshkent Xalqaro Vestminster Universiteti
akademik litseyi
oliy toifali o'zbek tili fani o'qituvchisi
zaripova_mamura@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu dars ishlanmasida leksik mavzu bo'yicha insoniy fazilatlarining shakllanishi, bu jarayonda oilaning: ota-onaning, aka-ukaning, opa-singilning roli, yoshlarning o'qib axloq normalariga amal qilish ko'nikmalari va jamiyatda odamlarning ijtimoiy o'qib me'yorlariga amal qilish orqali namoyon etiladigan madaniyatning muhimligi haqida mulohaza qilishga undaydi. Grammatik mavzu yuzasidan esse yozish qoidasi tushuntiriladi va esse yozish malakasi shakllantiriladi

Аннотация: Разработка данного урока побуждает к размышлению о формировании человеческих качеств по лексической теме, роли семьи в этом процессе: родителей, братьев, сестер, навыках молодежи соблюдать нормы этикета и важности культуры, проявляющейся в обществе через соблюдение людьми норм социального этикета. Объясняются правила написания эссе по грамматической теме и формируется навык написания эссе.

Annotation: The development of this lesson encourages reflection on the formation of human qualities on the lexical topic, the role of the family in this process: parents, brothers, sisters, the skills of young people to observe the norms of good manners and morality, and the importance of culture, which is manifested in society by observing the norms of social etiquette. The rules for writing essays on grammatical topics are explained, and the skill of writing essays is developed.

Kalit so'zlar: fazilat, o'qib, axloq, madaniyat, oila, ota-ona tarbiyasi, insonlar o'rtasidagi muomala o'qibi, transport vositalari, o'qib so'zlari, esse yozish qoidasi, esse turlari.

Ключевые слова: добродетель, манеры, мораль, культура, семья, воспитание родителей, этикет взаимодействия между людьми, транспортные средства, слова этикета, правила написания эссе, виды эссе.

Keywords: virtue, manners, ethics, culture, family, parental upbringing, etiquette of interaction between people, vehicles, words of etiquette, rules for writing essays, types of essays.

Leksik mavzu: Ijtimoiy odoblar. Fazilatlat.

Grammatik mavzu: Esse yozish qoidasi.

Ta’limiy maqsad: Ijtimoiy odoblar, insoniy fazilatlar va esse yozish qoidalari haqida nazariy va amaliy bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarda odob, hurmat, sabr-toqat, bag‘rikenglik kabi fazilatlarini shakllantirish, jamiyatda to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy izohlash va esse shaklida fikrni yozma bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Uyga vazifa yuzasidan takrorlash va mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash. Guruh 4ta kichik guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga topshiriqlar beriladi va o‘zaro bellashadilar.

1-ilova. “Mening temperamentim”, “Kamalak”, “Rang-barang olam” va o‘zbek tilida kelasi zamon fe’lini, kelasi zamon maqsad maylini, shart maylini hosil qiluvchi qo‘shimchalar yuzasidan mustahkamlash uchun moslashtirish testlari ustida ishlash mashg‘uloti.

Flippity Spinner ilovasida temperamentlar haqida savol -javob asosida mavzular takrorlanadi va mustahkamlanadi

Bunda Flippity Spinner ilovasiga to‘rtta temperament smayliklari joylashtiriladi va aylantriladi, kichik guruhlariga qaysi bir ko‘rinishdagi smaylik tushsa, shu temperamentga xos xususiyatlarni keltirib, shart qo‘shimchasini qo‘llab gap tuzadilar, izoh beradilar.

Masalan: Flegmatik – agar inson og‘ir – bosiq bo‘lsa, har bir ishni reja asosida bajarsa va puxta qilsa, flegmatik temperamentiga xosdir.

Sangvinik- agar odam harakatchan, xushchaqchaq, gapdon, irodali bo‘lsa, sangvinik temperamentiga xosdir

Xolerik- agar odam tez jahli chiqib ketadigan, hissiyotgaberiluvchan bo‘lsa, xolerik temperamentiga xosdir.

Melanxolik- Agar odam o‘z kuchiga ishonmaydigan, nutqi sekin, doimo tushkun, tang ahvolda yuradigan, qiyinchiliklardan qo‘rqadigan bo‘lsa, melanxolik temperamentiga xosdir.

2-ilova. 1-test .Moslashtiring. Har bir test 2,5 baldan.

1.Pushti delfinlar boshqa dengizda ham paydo bo‘lar.	A)o‘tgan zamon fe’li
2.Men ranglar haqida ko‘proq ma’lumot olmoqchiman	B)shart ma’nosini ifodalovchi fe’l
3.Ranglar haqida ko‘p yangiliklar bilib oldingmi?	C)kelasi zamon fe’li
4.Bolalar chizgan rasmlarini qora rangga bo‘yasalar,ularni psixolog qabuliga olib boorish zarur	D)kelasi zamon maqsad fe’li

J) 1-C, 2-D, 3-A, 4-B.

1. Dunyoda tilining rangi pushti bo‘lmagan yagona it zoti	A)pushti kaptar
2. Amazonka tabiatda yashaydi	B) karkidon
3.Yer sayyorasida atigi 3 dona qolgan	C)tovus
4. Dunyodagi eng turfa ranglarga ega yagona va chiroyli qushlar	D)Chau-chau

J)1-D, 2-A,3-B, 4-C.

3-ilova.Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu yuzasidan uyga vazifa berilgan.Ya'ni, o 'quvchilar ijtimoiy odoblar haqida mustaqil taqdimot tayyorlashlari kerak bo 'ladi. Har bir kichik guruhga quyidagi mavzuda taqdimot tayyorlash topshirilgan:

1-guruhga "Transport vositalarida ijtimoiy odoblar";

2-guruhga "Salomlashish odobi" (o 'zbek xalqiga xos);

3-guruhga"Bozorda muomala odobi"

4-guruhga "Dam olish maskanlaridagi ijtimoiy odoblar"

Yuqoridagi guruhlar taqdimot qilish jarayonida quyidagi talablar qo 'yilgan :


-ijtimoiy odoblar haqida gapirib beradilar;

- video lavha namoyish etishadi;

-shu mavzuga taalluqli bo 'lgan hikmatli so 'zla, sitatalar, maqollardan namunalar keltirishlari kerak;

- mavzuga mos ravishda she'r yodlagan bo 'lishlari kerak;

4-ilova Barcha guruhlar taqdimotlarini namoyish etganlaridan so 'ng , mavzuni umumlashtirish maqsadida quyidagi rasm asosida suhbat o 'tkaziladi.



-yuqorida keltirilgan ijtimoiy odoblar , avvalo, qayerda shakllanishi kerak?

-oilada qanday odob va fazilatlarni o 'rganamiz?

- o 'zbek xalqida birinchi navbatda kimga hurmat ko 'rsatiladi?

- "Qush uyasida ko 'rganini qiladi" degan maqolni qanday izohlab berasiz?

5-ilova.

Mavzuni yanada mustahkamlash uchun o 'quvchilar (guruhlar) darslikning 67-betidagi 1-topshiriq ustida ishlaydilar.

Bu topshiriq uchun 5 daqiqa vaqt beriladi . Birinchi topshiriqdagi matnni diqqat bilan o 'qib, 2-topshiriqda berilgan testing javobini topishlari kerak. Birinchi va to 'g'ri topgan guruh rag'batlantirish baliga ega bo 'ladi.

1-topshiriq. 67-bet

A.Odobli, bilimdon, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona-Vatanni sevish hissini uyg'otish o'ta muhim hisoblanadi.

B Oilada farzandlarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda ota-onaning o'zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishi, farzandlarning kelajakdagi orzu-maqсадlarini tushunib olishlari ularning

sogʻ-salomat voyaga yetishlari uchun asos boʻladi. Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvor, odatlar va aql-farosatga ega boʻlgan boʻlsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi: aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy koʻnikmalari oz boʻlsa, bunday shaxs baʼzan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qoʻl uradi.

D. Bolalarni tarbiyalashda yoʻl qoʻyilgan xato-kamchiliklardan hech qachon koʻz yummasligimiz kerak. Baʼzan odobsiz, bilimsiz, aqlsiz, giyohvand, ota-onasiga qoʻl koʻtaradigan va oʻz bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi boʻlayotgan kishilar uchraydi. Bunday- larning paydo boʻlishiga asosiy sababchi ota-onalari-ku! Bolasining bunday xulqiga ularning tarbiyaga loqaydliklari sabab boʻlgan.

68-bet 2 topshiriq.

Oʻylang va toping. Yozing.

Baholash: hammasini toʻgʻri topgan guruhga 5ball,

6 tasini toʻgʻri topgan guruhga 4 ball,

2 tasini toʻgʻri topgan guruhga 3 ball qoʻyiladi.

Namuna.1. Tarbiyali farzandlar butun jamiyat boyligi sanaladi. (A)

2.Inson qanchalik yaxshi xulq-atvorga ega boʻlsa, hayotda shunchalik muvaffaqiyatga erishadi. (B)

3.Bolalarning xatolarini vaqtida tuzatish kerak. (D)

4.Shaxsning hayotiy koʻnikmalari uni notoʻgʻri ishlardan asraydi. (B)

5.Ota-onaning oʻzaro samimiy munosabati farzandlarga taʼsir qiladi. (B)

6.Oila farzandlarning shaxs boʻlib yetishishlaridagi asosdir. (A)

7.Bilimsiz, axloqsiz kishilarning oilasidagi tarbiya farzandlar tarbiyasiga taʼsir etadi. (D)

8.Farzandlar ulgʻaygan sari ota-ona ular bilan doʻstona munosabatda boʻlishi lozim (B)

6-ilova. “Kim topqir” mashgʻuloti. Bu mashgʻulotda guruhlarga moʻjizalar maydoni asosida raqamlarni tanlashadi va u yerda yozilgan taʼrif qaysi fazilat haqida ekanligini topishlari kerak boʻladi. Har bir guruh 3 marta raqam tanlash imkoniyatiga ega. Baholash : hammasini toʻgʻri topgan guruhga 5ball, 2tasini toʻgʻri topgan guruhga 4 ball, 1tasini toʻgʻri topgan guruhga 3 ball qoʻyiladi.

Bu topshiriqlar quyidagicha:

1. Adolat

— Barchaga bir xil munosabatda boʻlish, haqiqatni himoya qilish va nohaqlikka qarshi turish qobiliyati.

2. Vijdonlilik

— Ichki axloqiy nazorat; toʻgʻri va notoʻgʻrini ajratish, qilgan ishiga masʼuliyat bilan yondashish.

3. Hurmat

— Boshqalarning fikri, huquqi va qadriyatlariga eʼtiborli boʻlish; odamni inson sifatida qadrlash.

4. Sabr-toqat

— Qiyinchiliklarga bardosh berish, shoshilmasdan to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati.

5. Kamtarlik

— O‘zini haddan tashqari ko‘klarga ko‘tarmaslik, boshqalarning ustidan ustun qo‘ymaslik, oddiylik.

6. Bag‘rikenglik

— Boshqa insonlarning dini, fikri, madaniyati va xarakterini hurmat bilan qabul qilish.

7. Sadoqat

— Do‘stlarga, oilaga, jamiyatga yoki maqsadga sodiq qolish, ularni yarim yo‘lda tashlab ketmaslik.

8. Mas’uliyat

— O‘z vazifalarini o‘z vaqtida va puxta bajarish, ishning oqibatlarini oldindan o‘ylash.

9. Kechirimlilik

— Boshqalarning xatolarini tushunish va ularni kechira olish, adovatni saqlamaslik.

10. Halollik

— Haqiqatni aytish, yolg‘ondan yiroq bo‘lish va har qanday vaziyatda to‘g‘ri yo‘lni tanlash, nonini halol mehnat orqali toppish fazilati.

11. Mehnatsevarlik

- mehnatdan bosh tortmaslik, buyurilgan ishni puxta bajarish fazilati

12. Vatanparvarlik

- Kindik qoni to‘kilgan yerni sevish, himoya qilish, asrash

7-ilova .Esse yozish qoidasi va uning turlari haqida ma’lumot.

Esse (fransuzcha, *tajriba, mashq*) – adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik mavzularda yozilgan, masalalar sistematik-ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadigan nasriy asar.

Yozilish maqsadiga ko‘ra esse quyidagi turlarga bo‘linadi:

-tavsiflovchi esse;

-mulohazali esse;

-umumlashtiruvchi esse;

-argumentli esse;

-ijodiy esse.

Esse muallifga o‘z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma’lumotlarni ongli qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib o‘z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Muhimi, keltirilgan fakt va dalillarning o‘rinli qo‘llanishidir.

Essening hajmi 200–2500 ta so‘z atrofida bo‘ladi.

8-ilova .Uyga vazifa:

Yuqorida berilgan ma’lumotlardan foydalanib “ Ba’zi odamlar odam har doim haqiqatni aytishi kerak desalar, boshqalar har doim ham haqiqatni gapirish to‘g‘ri bo‘lmaydi degan fikrni bildiradilar” mavzusida ~~muhtal~~

esse yozing. Unda quyidagi qolipdan foydalaning:

1)mavzu;

- 2)qo'yilgan muammo;
- 3)muammo xususidagi fikrlar;
- 4)muammoning yechimi; 5)taklif va xulosalar.

Dars yakuni.

Dars yakunida xulosa sifatida O 'zbekiston Qahramoni, O 'zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidovning "Kamtarlik " she'ri o'qiladi. Insonlardagi eng muhim fazilatlardan biri kamtarlikdir. Kamtar inson har yerda hurmatga sazovor bo 'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:

O 'zbek tili darsligi. Yangi nashr. Toshkent-2022

Hadis kitobi

O 'zbek xalq maqollari to plami

Erkin Vohidov she'riy to 'plami.

"Wedwall" ilovasi.

Flippity Spinner ilovasi.

.Ziyonet. Uz. Sayti.